

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar oyi uchun

- I. Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

Bugungi kunda viloyatda 4 686 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy soniga nisbatan yuqori ulushga ega 1 255 tasi (26,7 %) Andijon shahriga, 582 tasi (12,4 %) Andijon tumaniga, 372 tasi (7,9 %) Shahrixon tumaniga, 333 tasi (7,1 %) Asaka tumaniga va 267 tasi (5,7 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-fevral holatiga ko'ra



II. Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Sanoat - bu, xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2026-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 4 424,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 108,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

	Hajm mlrd so'm	Fizik hajm indeksi %
Andijon viloyati	4 424,2	108,2
Andijon sh.	590,6	113,8
Xonobod sh.	159,2	108,2
<i>Tumanlar</i>		
Oltinko'l	136,0	108,3
Andijon	99,3	110,8
Baliqchi	142,0	109,4
Bo'ston	41,9	126,3
Buloqboshi	90,5	132,5
Jalaquduq	89,6	112,1
Izboskan	53,0	117,1
Ulug'nor	67,7	109,1
Qo'rg'ontepa	198,4	109,2
Asaka	1 918,8	108,0
Marhamat	68,0	129,2
Shahrixon	122,2	108,7
Paxtaobod	63,2	114,6
Xo'jaobod	160,2	112,6

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Andijon viloyatida 2026-yilning yanvar oyida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 267,2 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, Buloqbosh tumanida (130,2 %), Marxamat tumanida (126,8 %), Bo'ston tumanida (123,6 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yanvar oyida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 4 303,8 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (97,3 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 55,3 mlrd so'm (1,3 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 50,9 mlrd so'm (1,1 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 14,2 mlrd so'm (0,3 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi 2026-yilning yanvar oyida
2026-yilning yanvar oyida



**III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2026-yilning yanvar oyida viloyatda 10 867 dona yengil avtomobillar (2025 yilning yanvar oyiga nisbatan 28,5 % ga ko'paygan), 2,3 ming tonna Neft (18,7 % ga ko'paygan), hamda 2 943,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (4,2 m ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar *	2025-yil yanvar *	2026-yil yanvar *
Yumshoq bug'doy va spelta uni ming tonna	3,1	3,1	2,9
Paxta tolasi tonna	4 170,6	3 994,2	860,1
Neft ming tonna	1,8	1,8	2,3
Paxta chigiti ming tonna	5,9	5,8	0,0
Kalish - ming juft	430,0	430,0	357,6
Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar tonna	7,4	7,4	0,0
Yengil avtomobillar dona	7 665	7 665	10 867
80 % dan kam bo'lmagan etil spirti ming litr	1 006,0	1 006,0	896,7

**2024-2025-yillar yanvar oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024 yilning yanvar oyida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 56,4 % (60,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,0 % (3,1 %), quyi texnologiyali esa 38,5 % (36,7 %)ni tashkil etgan.






Andijon viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar oyida

Yengil avtomobillar – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo'linib, 4 kishigacha mo'ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2026-yilning yanvar oyida 6 993 dona “Cobalt” (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,6 % ga oshgan), 1 900 dona “Tracker” (42,4 % ga oshgan), 1 974 dona “Onix” (35,0 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.

**Andijon viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish,
donada
yanvar oyda**



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida sanoat korxonalari tomonidan
sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

2026-yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 16,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar *	2025-yil yanvar *	2026-yil yanvar *
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	24,4	14,1	3,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	81,9	0,0	0,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya xizmatlar bo'yicha 16,5 % ga kamaygani kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar *	2025-yil yanvar *	2026-yil yanvar *
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	14,8	14,8	9,3
Oqava suvlarning shlami - mlrd so'm	3,1	3,1	3,4

*2024-2025-yillar yanvar oyilari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 518,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,3 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 24,6 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat – bu, xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi



Ijrochi:

O'. Karimov
74 224-80-00 (6012)